
ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI

Madaminova Dilnura Bahodir qizi

Talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Email: madaminovadilnura56@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sultanning “Abu Rayhon Beruniy” romanidagi obrazlar tahlil qilinadi, shuningdek, asarning mohiyati, yozuvchi mahorati, tarixiy voqealar haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, tarixiy obraz, tarixiylik, Beruniy, Mahmud G‘aznaviy

“ABU RAYHAN BERUNI” NOVEL BY ISAJON SULTAN

Abstract: This article analyzes the characters in the novel "Abu Rayhan Beruni" by the writer Isajon Sultan, and also talks about the essence of the work, the writer's skills, and historical events.

Key words: historical novel, historical image, historicity, Beruni, Mahmud Ghaznavi

РОМАН ИСАДЖАНА СУЛТАНА “АБУ РАЙХАН БЕРУНИ”

Аннотация: В этой статье анализируются образы из романа писателя Исаджана Султана “Абу Райхан Беруни”, а также рассказывается о характере произведения, мастерстве писателя, исторических событиях.

Ключевые слова: исторический роман, исторический образ, историзм, Беруни, Махмуд Газневи

Adabiyotning bosh quroli – bu so‘z. So‘zning badiiy-falsafiy, ijtimoiy-estetik salohiyati yuksakdir. Har bir ijodkor ijtimoiy muhit va ma’naviy ehtiyoj talablariga muvofiq yuzaga chiqadi. Bu narsa, avvalo, iste’dodning tabiatida zuhur topadi. Xususan, tog‘ yalpizi alohida parvarishni talab qilmaydi. Tabiatning sirli va sehrli bir mo‘jizasi sifatida xushbo‘y tarovatini, zumrad rangini, aqiq jozibasini yilning to‘rt faslida birday saqlab qoladi. Yoz jaziramasi-yu qish ayozida ham o‘zligini yo‘qotmaydi. Badiiy iste’dod ham Alloh in’om etgan noyob javhardir. Chinakam iste’dod tog‘ yalpizi misoli, hatto xazon bo‘lsa ham, asl rangi-yu tarovatini yo‘qotmaydi. Isajon Sultan ana shunday yorqin, noyob iste’dod sohibi, zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z so‘ziga ega yozuvchilardan biri.

Tarix va adabiyot uzviy bog‘liqdir. Zero tarixni o‘rganmasdan turib, kelajakni yaratib bo‘lmaydi. Tarix haqiqatlarni so‘zlaydi. Moziylarda sado kelganda, adabiyot uni kuyga soladi, adabiyot shonli tarixni tarannum etadi. “Zero tarixdan bexabar xalq mazlum xalq,

tarixni asragan va bilgan xalq qudratli va tenglar ichida teng xalqdir”¹⁴. Darhaqiqat tarix saboqlari bizga ko‘p narsani o‘rgatadi, ko‘plab sinoatlardan ogoh etadi. Shonli tarixdagi ulug‘ ajdodlarimizning dinu-e’tiqodlari, yaratgan san’at asarlari, ilmu-ziyolari bugungi avlod yuragida mayoq vazifasini o‘tamoqda. Adabiyot gulshanida o‘ziga xos betakror bog‘ yaratgan ham nazmda, ham nasrda ijod qilgan Isajon Sulton ijodida ajdodlar ruhi, siyoshi singib ketgan. Tarixiy asarlarida shuni ko‘rish mumkinki, u tarixni puxta egallagan yozuvchi. Shoир ijodida tarixiylik yetakchilik qiladi, tarixiy shaxslar, tarixiy voqealar, tarixiy joylar yozuvchi asarlarining asosini belgilaydi.

Isajon Sulton uchun tarixiy voqelik bir vosita. Moziyga murojaat etish asosida xalqimizning qanchalar yuksak axloqiy madaniyatini, aqliy salohiyatini yoritadi. Uning “Abu Rayhon Beruniy” tarixiy-biografik romanida yurtimizning daho allomasi Abu Rayhon Beruniyning yorqin shaxsiyati, buyuk kashfiyotlarining yaratilishi tarixi bilan birga, o‘sha davrda Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan voqealar, shuningdek, hukmdorlar Qobus ibn Vushmgir, xorazmshoh Ma’mun, sulton Mahmud G‘aznaviy bilan munosabatlari haqida batafsil hikoya qilinadi.

Muallifning o‘zi asar qahramonlari haqida shunday deydi: “Ushbu asarda yuzdan oshiq kishilar bor va ularning barchasi Beruniy haqida so‘z aytishadi. Bu xuddi bir yoritqich atrofida samo jismlarining aylanishiga o‘xshaydi.” Beruniy ulug‘vor va ezgu maqsadlarni ko‘zlagan birligina kishi o‘z hayoti mobaynida nimalar qila olishi mumkingining yorqin timsolidir. Sabot va matonat, to‘g‘rilik va halollik uning hayotining oltin qoidalari edi. Shu sababli asrlar davomida avlodlar e’tirofiga sazovor bo‘ldi, nomi tarix zarvaraqlariga muhrlandi.

Xulosa qilib aytganda, tarix – bu ezgulik bilan yovuzlik ko‘rinishlarining boqiy kurash jarayonlari demakdir. Tarixiy asarlar o‘quvchining inson haqidagi tasavvur-tushunchalarini kengaytiradi. Inson tirik ekan, buyuklik va ojizlik, yuksaklik va tubanlik, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik yonma-yon yashar ekan. Inson o‘z xalqi tarixining sahifalaridan boxabar bo‘larkan, o‘zi uchun mustahkam ma’naviy asosni yaratadi. Bu yo‘lda “Abu Rayhon Beruniy” asari kata ahamiyatga egadir.

¹⁴ X.Davron “Bibixonim qissasi”. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent. 2006. 4 bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. T: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023.
2. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/to‘plab nashrga tayyorlovchilar : G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
3. N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O ‘quv qo ‘llanma. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2017.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.